ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,3

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать. Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail: philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт: https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

Professor Ibodulla Mirzayev ilmiy maktabining shakllanishi va taraqqiyoti 7

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ ПАНЖИЕВИЧ
Инициальные консонантные кластеры в современном узбекском языке: инвентарь, структурные типы и статистическая представленность (в сопоставлении с русским языком) 13

UMURQULOV ZAFAR BEKPO‘LATOVICH
Til – madaniyat ko‘zgusi 18

IBRAGIMOV JASURBEK TO‘LQINJON O‘G‘LI
Epitet tematikasi (“Alpomish” dostoni misolida) 23

ИШАНХАНОВА МУХЛИСАБОНУ ТУРГУНОВНА
Морфологические категории арабского языка в когнитивной интерпретации эпохи NAHDA 27

SULEYMANLI ATILLA NAZIM O‘G‘LU
Ozarbayjon ma’rifatparvarligi va o‘zbek jadidchiligida milliy o‘zlikni anglash g‘oyasining genezisi 33

SAMANDAROVA GULHAYO ERKIN QIZI
Ijtimoiy tarmoqlarda o‘zbek tilining rivojlanish tendensiyalari 42

QURBANBAYEVA NILUFAR ILXAMOVNA
O‘zbek va ingliz tillarida olqish, duo va tilak so‘zlarining lingvokulturologik xususiyatlari 47

KARIMOV ABDULATIF ABDUG‘AFOROVICH
Til tizimini maydonlar orqali tushunish g‘oyasining vujudga kelishi 52

XURSANOV MAXMUD G‘AYRAT O‘G‘LI
Termiz shahri ko‘cha nomlarining yasalish xususiyatlari 59

МУНДАРИЖА

TURG‘UNOVA MAFTUNAXON JAMOLDIN QIZI
Topishmoqlarni tasniflash muammolari 63

MAXAMMATOVA FERUZA OLIMOVNA
«Vaqt» konseptining badiiy ifodalanishi 67

JUMANOVA ORZIGUL
Cho‘lponning «Kecha va kunduz» romanidagi maqollarning
inglizcha tarjimalarida lingvomadaniy konseptlarning ifodalanishi 71

IKROMOVA CHAROSXON
G‘afur G‘ulom «Shum bola» asaridagi monosemantik
va polisemantik so‘zlar tahlili 75

QURBONOVA KAMOLA ABDURAHMONOVNA
Kognitiv tilshunoslikda “Figura-fon” tamoyili haqida 78

ADABIYOTSHUNOSLIK

OTAQULOVA DILDORA OYBEK QIZI
Tesha Saydaliyev she'riyatida mavzu va g‘oya uyg‘unligi 81

ЭШОНҚУЛОВ ИЛҲОМ АБДУСАЛОМОВИЧ
Мирсиддиқхон Ҳашмат тазкираларининг илмий
аҳамияти ва адабий қиймати 84

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

G'AFUR G'ULOM «SHUM BOLA» ASARIDAGI MONOSEMANTIK VA POLISEMANTIK SO'ZLAR TAHLILI

Ikromova Charosxon,
O'zbekiston Milliy universiteti magistranti

O'zbek tilshunosligida badiiy matn leksikasini o'rganish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, G'afur G'ulomning «Shum bola» asari til imkoniyatlarini, so'zlarning semantik boyligini va tarixiy taraqqiyotini yoritishda muhim manba sanaladi. Asarda bir ma'noli (monosemantik) va ko'p ma'noli (polisemantik) leksemalarning o'rinli qo'llanishi muallif uslubining asosiy lingvistik xususiyatlaridan biridir. So'z ma'nolarining kengayishi, o'zgarishi va konnotativ jihatlarining yuzaga chiqishi badiiy matnning ifodaviyligini oshiradi.

G'afur G'ulom asarlari leksikasining o'ziga xosligini asoslovchi lingvistik omillardan biri polisemantik so'zlar, omonimlar, sinonimik paradigma, antonimlarning o'z o'rnida qo'llanishidir. Leksemalarni diaxron jihatdan o'rganishda tilning rivojlanish bosqichlariga alohida e'tibor qaratiladi. Shuning uchun tarixiy jarayonlar so'z ma'nolarining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi. So'z ma'nosi iste'mol doirasining kengayishi, uning ma'no ottenkasidagi o'zgarishlar ham til taraqqiyotida o'ziga xos mavqeni egallaydi[1]. So'zlarning yangi ma'nolar bilan boyib borishi qonuniy jarayon hisoblanadi. Leksikada har bir leksema ma'nosining o'zgarishi, yangi ma'noda qo'llanishi, iste'moldan chiqishi, uning passivlashishi va faollashishi kabi jarayonlar kuzatiladi. Shu nuqtai nazardan so'z ma'nosini tarixiylik asosida tekshirib aniqlash yangi so'zlarning yuzaga kelishi qonuniyatlarini ochib berishda ayniqsa ahamiyatlidir[2]. So'z tarixan jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan. Yangi leksemaning ma'no nozikliklari tilda, xalq jonli so'zlashuv tilida mustahkam o'rin egallaydi. Har bir leksik birlik o'rni bilan bir-biriga yaqin yoki alohida-alohida tushunchalarni anglatishi mumkin. So'z ma'nolari va ma'no nozikliklari bosh va ko'chma ma'nolar kabi alohidalikka egaligi bilan ajralib turadi. So'z ma'nolaridan biri individual tarzda, boshqa holatlari esa kishilar tomonidan ko'chma ma'no hosil qilish jihatlariga ko'ra ajratiladi.

Leksik monosemiya (yunoncha: monos – «bir» sema – «belgi») – leksemaning ichki (mazmun) tomonidan faqat bitta leksik ma'noning bo'lishi. Masalan o'zbek tilidagi ***guruch*** leksemasi «sholidan oqlab olinadigan oshlik don» ma'nosini, ***abadiy*** leksemasi «mangu, doimiy» ma'nosini, ***tun*** leksemasi «sutkaning kun botishidan kun chiqqungacha, oqshomdan tong otguncha bo'lgan qismi» ma'nosini ifodalaydi. Bu leksemalarning boshqa ma'nolari yo'q.

Monosemiya hodisasi o'zbek tilshunosligida bir ma'nolilik deb ham yuritiladi. Bir ma'nolilik ko'proq terminlarga, yangi yaratilgan yoki boshqa tildan yangi o'zlashtirilgan leksemalarning boshlang'ich ishlatilish davriga xosdir: to'rtburchak (matem. termin), supermarket (yangi o'zlashtirilgan so'z) va b.lar[3].

Yangi yaratilgan yoki boshqa tildan yangi o'zlashtirilgan leksemalar vaqt o'tishi bilan turli lisoniy va nolisoniy omillar ta'sirida ko'p ma'noli leksemalarga aylanib qolishi mumkin. Nutqda esa buning aksi yuz beradi: ko'p ma'noli leksemaning faqat bitta ma'nosi voqelanadi. Atoqli otlar ham shartli ravishda monosemantik leksemalar qatoriga qo'shiladi[4]. Bir ma'noli so'zlardan ayrimlarini keltirib o'tamiz.

[f.ﻧﺎﻣﻪ -musulmonlarda ollotaologa ibodat, duolar]

1 Musulmonlarning kuniga besh mahal qilinadigan ibodatlari majmui va ularning har biri. (O'TIL, III, 15) ma'nosini ifodalagan ***namoz*** leksemasini «Shum bola» asari matnida uchratish mumkin:

Namoz*dan keyin qalandarlar bilan birga yengil-yelpi nonushta qilgan bo'ldik* (58-bet).

Ikkovimiz ikki tomonga ketdik. Omonning ***ketmoni*** *bilan mening qumriga movoza qilgan mollarimni bozorga soldik (21-bet).* Ushbu gapda qo'llanilgan *«yuzi katta, orqa tomonida dasta suqib qo'yadigan zo'g'arasi bor, yer chopish, loy qilish va b. ishlarda ishlatiladigan dastakli asbob» ma'nosini ifodalaydigan* (O'TIL, II, 358) ***ketmon*** so'zi ham bir ma'noli so'z sanaladi.

[1] Абдушукуров Б. "Қисаси Рабғузий" лексикаси. –Тошкент: Академия, 2008. – Б.118.
[2] Муталлибов С. Морфология ва лексика тарихидан қисқача очерк. – Тошкент: Фан, 1959. – Б.167.
[3] Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T., 2013. –B.260-261.
[4] Tursunov U., Muxtorov J., Ranmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: O'zbekiston,1992. – B.80.

Masjid istilohi [a. مسجد – sajda qilinadigan, namoz o'qiladigan joy, machit; ibodatxona] Musulmonlarning jam bo'lib, namoz o'qiydigan ibodatxonasi (O'TIL, II, 550) ma'nosini ifodalab bir ma'noli so'z hisoblanadi. Ushbu so'zni asar matnida machit shaklida ko'rishimiz mumkin:

Namozshomdan saharlik oshgacha ***machit-ma-machit*** *yurib qorilarning qiroatini eshitamiz* (7-bet).

Mazmuniy maydonlarda polisemantik so'zlarning denotativ va konnotativ ma'no munosabatlari o'ziga xos o'rin tutadi. Ko'p ma'nolilik haqida fikr yuritilganda, birinchi galda, shubhasiz, ism va fe'l kategoriyasiga oid, chunonchi, narsa-buyumni anglatuvchi, ish-harakatni ifodalovchi leksemalar ko'z o'ngimizda gavdalanadi. So'zlar o'rtasidagi ichki ma'no farqlanishi bilan bog'liq paradigmatik va sintagmatik munosabatlar omonimiya, polisemiya, sinonimiya, antonimiya kabi hodisalar, so'zlarning leksik-semantik variantlarini tasnif qilish jarayonida kengroq ochiladi. M.Mirtojiyevning e'tiroficha, polisemiya hodisasiga sof lingvistik nuqtayi nazardan yondashish M.Brealdan boshlangan. Bu borada bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Alisher Navoiy asarlarida ko'p ma'nolikdan mohirona foydalangan. Ma'lumki, so'zlarning asosiy qismi leksik yoki grammatik ma'no kasb etadi. Tilda sodir bo'luvchi tabiiy hodisalar polisemiya, omonimiya, antonimiya va sinonimiyada in'ikosini topadi. So'z avval yakka ma'no anglatib, davrlar o'tishi bilan ko'p ma'noni ifodalashi polisemiyadir. Umumiste'moldagi so'zlarning asosiy qismini ko'p ma'noli so'zlar tashkil etadi. Polisemiya ancha murakkab hodisa bo'lib, so'z semantik qurilishida mavjud bo'lgan har bir ma'noni belgilash ancha qiyin, shu bilan birga, ko'p ma'nolik ham amaliy, ham nazariy ahamiyatga molikdir. Bunda, ayniqsa, polisemiyani unga yondash bo'lgan hodisalardan farqlab olish muhimdir[1].

Polisemantik so'zlar tilning ifoda imkoniyatlarini, leksemaning semantik mundarijasini to'liq yoritishga xizmat qiluvchi lingvistik hodisadir. Adibning «Shum bola» leksikasining hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabatini tahlil qilish jarayonida undagi polisemantik so'zlarning hozirgiga nisbatan keng semantik mundarijaga ega ekanligi kuzatildi. Leksema – yaxlitlikdagi ifoda va mazmun planiga ega bo'lgan til birligi sanaladi. Leksemaning so'zdan farqi va uning ifoda ko'lamini o'rganish o'zbek tilining imkoniyatlari, xarakterli jihatlarini tahlil qilishda muhimdir. Leksema tabiatiga xos jihatlarni talqin etishda badiiy matn ahamiyatli o'rin tutadi. Badiiy matnda: leksemaning semantik ko'lami, ma'no xususiyatlari aks etadi; leksemaning til birligi sifatida ko'zga tashlanmagan semalari namoyon bo'ladi; leksema muallif mahorati darajasida qo'llanadi va matn talabiga ko'ra yangicha semalar shakllanadi[2].

«Shum bola» asari tili ta'sirchan tasvir usullariga boy. Leksemalarning aksariyati denotativ xarakterda bo'lishiga qaramay, asar tilining jozibadorligini ta'minlashda konnotatsiyaning o'rni beqiyosdir.

Asarda keltirilgan misollarga murojaat qilamiz:

[*f.* میوہ – hosil, ho'l va quruq meva] **1)** Ba'zi daraxt va butalarning hosili; **2)** Mevali daraxt; **3)** *ko'chma* Samara, natija, mahsul; **4)** Shakarpazlik mahsulotlari, shirinlik (O'TIL, II, 576) ma'nosini ifodalaydigan ***meva*** leksemasi asar so'z boyligida *«mevali daraxt»* ma'nosida namoyon bo'lgan: *Saratonda jiyda* ***meva****lari danagiga alif yozdirish uchun Makkaga ketadi* (16-bet).

Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'oti-t-turk» asarida ***xatun*** leksemasi «hukmdor, davlat boshlig'i xotini; xonim, malika» ma'nosini ifodalashini ta'kidlagan (I, 388). L.Budagov lug'atida leksemaning ***xátun, xadun, kat'*** fonetik variantlari keltirilgan, ular *«zavja; xotin kishi; xonim»* kabi ma'nolarni anglatgan (BD, I, 524). *Qatun//xátun* o'zlashmasining ma'noviy taraqqiyot yo'lini quyidagicha sharhlash mumkin[3]. Dastlab, u *«zodagon ayol, xonim, malika»*, so'ngra «zavja; ayol kishi» ma'nolarini anglatish uchun xizmat qilgan. Lekin *«beka, xonim»* ma'no ottenkasi ushbu so'z tomonidan ifodalanavergan. Qadimgi turkiy tilda xátun leksemasi qatun shaklida qo'llanib, «xonim, mansabdor ayol, aslzoda xotin, hukmdor ayol» (DTS, 436), eski o'zbek adabiy tilida *«ayol, xotun»* ma'nosini bildirgan (ANATIL, III, 422), hozirgi o'zbek adabiy tilida **1)** jinsiy jihatdan erkak toifasiga zid, farzand ko'rish, emizish qobiliyatiga ega odam; ayol; **2)** biror erkak nikohidagi ayol (O'TIL, IV, 415) ma'nolarida qo'llanmoqda: (44a4) Taxt-i xátun degän yerdin azimat musammam boldi (XM, 44a5). *G'. G'ulomning «Shum bola» asarida esa bu so'z «ayol, xotun»* ma'nosini ifodalagan: ***Xotin*** *chiqib ketgandan keyin tandirning sarpo'shini olib, bir oz erkinroq nafas oldim* (47-bet) kabi.

«Pishirilgan issiq ovqat» ma'nosidagi ***aš*** leksemasi (O'TIL, III, 168) ANATILda *«ovqat, taom»* (II, 540) ma'nosida voqelangan. Mazkur so'z adib asarida esa *«ovqat, taom»* ma'nosida qo'llanilgan: *Oshpazlar cho'michlab suzib berib turibdi. Bir tovoq uvra* ***osh****dan bir nima chiqdi shekilli, xo'randa: – Buning nimasi? Pashshami? – deb so'rab qolgan edi,* (22-bet) va h.k.

[1] Xo'janiyozova Sh. Alisher Navoiyning manoqib asarlari leksikasi. (Monografiya). – Toshkent, 2023. – B. 66.
[2] Xolmanova Z. "Boburnoma" leksikasi. – T.: Fan, 2007. – B.128.
[3] Xo'janiyozova Sh. Alisher Navoiyning manoqib asarlari leksikasi. (Monografiya). – Toshkent, 2023. – B. 66.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida *jayb* so'zining o'rniga ko'proq «*cho'ntak, kissa*» leksemalari ishlatiladi[1]. ***Cho'ntak*** *«kiyimda zarur yengil narsalarni solish uchun tikiladigan ichki yoki tashqi xaltacha; kissa»* ma'nolarini bildiradi. «Devonu lug'oti-t turk» asarida *čontak* o'rnida *kÿnčÿk* (I, 444), *jančuq* (III, 52) so'zlari ishlatilgan. *Kissa* va *čontak* ma'nodosh bo'lib, ular bir xil vazifani bajargan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida *kissa «og'zi bog'ichli pul soladigan xaltacha»* hamda *«kiyim qismi - cho'ntak»* ma'nolarini bildiradi (O'TIL, II, 376). Holbuki, shevalarda ***cho'ntak*** so'zi o'rnida *kissa* qo'llanilaveradi. Masalan, Xorazmda *kissa, kiysa;* Qashqadaryo, Andijon, Qo'qonda kista, Surxondaryoda *kissa* tarzida talaffuz qilinadi. Ko'rinadiki, eski o'zbek adabiy tilida *kissa, yančuq* bo'lsa-da, XVI asrdan so'ng asosan *čontak* so'zi umumlasha borgan. *G'.G'ulomning «Shum bola» asarida esa bu so'z «og'zi bog'ichli pul soladigan xaltacha»* ma'nosini ifodalagan: *Olacha yaktagimning **cho'ntagi,** yengim, lippam oshiqqa to'lib ketgan edi* (10-bet).

Hozirgi o'zbek adabiy tilida [f. مزوب – tariqdan qilingan ichimlik] *«Oqshoq, tariq, arpa va sh.k. donlardan tayyorlanadigan, kayf beradigan ichimlik»* (O'TIL, IV,549) ma'nosini ifodalovchi ***bo'za*** leksemasi asar matnida aynan shu ma'noda qo'llanilgan: *Novcha yigit suzgan **bo'za**dan ozgina tatib ko'rib, birinchi oyoqni Sultonga uzatdi* (29-bet).

[*a.* ناوىح – tirik narsa, har bir tirik jon] **1)** *zool.* Harakat qilish va sezish qobiliyatiga ega bo'lgan har bir tirik mavjudot; jonivor; **2)** Insondan boshqa har qanday jonivor; **3)** *ko'chma* Odati, qilig'i, xatti-harakati va sh.k. jihatdan hayvonga o'xshashlikni, hayvonga nisbatli haqoratni bildiradi (O'TIL, V, 482) ma'nosini ifodalaydigan ***hayvon*** so'zi asar so'z boyligida «jonivor» ma'nosida qo'llangan:

*Jon bermoqchi bo'lgan **hayvon** eng so'nggi nafasida ma'rab qolmoqchi bo'ldimi, ichidan butun o'pkaning siqilib yoyilishidan paydo bo'lgan hansirash bilan katta hammomning dudburoniday pishqirib yubordi* (44-bet).

Hozirgi o'zbek adabiy tilida [f.ادخ-iloh, xudo; hukmdor xo'jayin] ma'nosini ifodalagan ***Xudoyo*** leksemasi *«diniy tushunchaga, xususan, islom diniga ko'ra, butun mavjudotni, butun olamni yaratgan va uni boshqaruvchi oliy ilohiy kuch; har qanday dinning e'tiqod qilish asosi»* ma'nosini anglatadi:

*– Obi **Xudoyi,** obi **Xudoyi**, – deb chanqaganlarga suv ulashib yuribdi* (23-bet).

*– Ey **Xudo,** quruq tuhmatingdan asra, qanday baloga yo'liqdim, O'zing saqla! – deb javob berar edi u* (24-bet).

*– Bu baraka topgurlami bizga **Xudo** yetkazdi* (81-bet).

[1. Oyoq kaftining orqa qismi. 2. Oyoq kiyimining shu joyga to'g'ri keladigan qismi. 3. Keltirilgan zararni qoplash uchun to'lanadigan yoki olinadigan haq.Tovon olmoq. Tovon to'lamoq. 4. Jo'nalish kelishigidagi so'z bilan qo'llanib, biror narsa, ish-harakatning shu kelishikdagi so'z bildirgan shaxs zimmasida ekanligini bildiradi] ma'nolarini ifodalaydigan ***tovon*** leksemasi *«keltirilgan zararni qoplash uchun to'lanadigan yoki olinadigan haq»* ma'nosida qo'llangan: *Ey, bola bechora. Baxti qora yetim. Hoji bobo, hamma yo'qolgan narsalarning **tovonini** men beraman. Necha pul bo'ladi?* (148-bet).

Xulosa qilib aytganda, polisemantik so'zlar tilning ifoda imkoniyatlarini, leksemaning semantik mundarijasini to'liq yoritishga xizmat qiluvchi lingvistik hodisadir. G'afur G'ulomning «Shum bola» asari leksikasining hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabatini tahlil qilish jarayonida undagi polisemantik so'zlarning hozirgiga nisbatan keng semantik mundarijaga ega ekanligi kuzatildi.

Rezyume. Maqolada G'afur G'ulom «Shum bola» asari leksikasi asosida bir ma'noli (monosemantik) va ko'p ma'noli (polisemantik) so'zlarning xususiyatlari tahlil qilinadi. Unda leksemalarning tarixiy taraqqiyoti, ma'no o'zgarishlari hamda badiiy matndagi denotativ va konnotativ jihatlari yoritilib, polisemantik so'zlarning ifodaviylikni oshirishdagi o'rni ko'rsatib beriladi.

Resume. This article analyzes the lexical features of mono-semantic and polysemantic words based on G'afur G'ulom's «Shum bola». It examines the historical development of lexemes, semantic changes, and their denotative and connotative functions in the literary text, highlighting the role of polysemantic words in enhancing expressiveness.

Резюме. В статье на основе лексики произведения Гафур Гулям «Шум бола» анализируются особенности однозначных (моносемантических) и многозначных (полисемантических) слов. В ней освещаются историческое развитие лексем, изменения их значений, а также денотативные и коннотативные аспекты художественного текста, при этом показывается роль полисемантических слов в повышении выразительности.

[1] Xo'janiyozova Sh. Alisher Navoiyning manoqib asarlari leksikasi. (Monografiya). – Toshkent, 2023. – B. 66.